

## G.BLUMERNING RAMZIY INTERAKSIONIZMI

Ortiqova Sabina Elyorovna

O'zbekiston Milliy Universiteti. Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

e-mail: [sabinaortiqova30@gmail.com](mailto:sabinaortiqova30@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346215>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada amerikalik sotsiolog Jorj Herbert Mid g'oyalarini rivojlantirgan va zamonaviy sotsiologiyada ramziy interaksionizm yo'nalishining asoschisi hisoblangan G.Blumerning ilmiy qarashlari o'rganiladi. Ramziy interaksionizm individ va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini, ijtimoiy belgilar va ramzlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Blumer fikricha, odamlarning xatti-harakatlari ramzlar orqali shakllanadi va ijtimoiy hayot doimiy muloqot va talqin natijasida vujudga keladi. Maqolada Blumer tomonidan ilgari surilgan asosiy tamoyillar, ramziy interaksionizmning nazariy asoslari va uning zamonaviy sotsiologiyadagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ramziy interaksionizm, ma'no va ramzlar G.Blumer, ijtimoiy interaksiya, o'zlik, talqin.

**Abstract.** This article explores the scientific views of G. Blumer, who developed the ideas of George Herbert Mead and is recognized as the founder of the symbolic interactionism direction in modern sociology. Symbolic interactionism analyzes the process of interaction between the individual and society, focusing on the significance of social symbols and meanings. According to Blumer, human actions are shaped through symbols, and social life emerges through constant communication and interpretation. The article discusses the basic principles proposed by Blumer, the theoretical foundations of symbolic interactionism, and its role in contemporary sociology.

**Keywords:** symbolic interactionism, meaning and symbols, G Blumer social interaction self interpretation.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научные взгляды Г. Блумера, развившего идеи Джорджа Герберта Мид и признанного основателем направления символического интеракционизма в современной социологии. Символический интеракционизм анализирует процесс взаимодействия между индивидуумом и обществом, акцентируя внимание на значении социальных символов и смыслов. По мнению Блумера, действия человека формируются через символы, а социальная жизнь возникает в процессе постоянной коммуникации и интерпретации. В статье рассматриваются основные принципы, предложенные Блумером, теоретические основы символического интеракционизма и его роль в современной социологии.

**Ключевые слова:** *Символический интеракционизм, Смысл и символы, Г. Блумер, Социальное взаимодействие, Самость (личность), Интерпретация.*

Mazkur maqolada amerikalik sotsiolog Jorj Herbert Mid g'oyalarini rivojlantirgan va zamonaviy sotsiologiyada ramziy interaksionizm yo'nalishining asoschisi hisoblangan G. Blumerning ilmiy qarashlari o'rganiladi. Ramziy interaksionizm individ va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini, ijtimoiy belgilar va ramzlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Blumer fikricha, odamlarning xatti-harakatlari ramzlar orqali shakllanadi va ijtimoiy hayot doimiy muloqot va talqin natijasida vujudga keladi [1]. Maqolada Blumer tomonidan ilgari surilgan asosiy tamoyillar, ramziy interaksionizmning nazariy asoslari va uning zamonaviy sotsiologiyadagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Ramziy interaksionizm — sotsiologiyada ijtimoiy harakat va muloqotni o'rganishga qaratilgan mikro-darajadagi yondashuv bo'lib, uni rivojlantirgan olimlardan biri G. Blumer (1900–1987) hisoblanadi [1]. U o'zining ilmiy faoliyatida insonlarning o'zaro ta'sirini tushunish uchun ramzlar, til va muloqotning ahamiyatini asoslab berdi [2]. Blumer ta'kidlaganidek, ijtimoiy haqiqat shaxslar o'rtasidagi talqinlar va muloqot natijasida yuzaga keladi [1]. Asosiy qism

G. Blumerning ramziy interaksionizm tamoyillari:

1. Insonlar narsalarga nisbatan ularning mazmuni orqali munosabatda bo'ladilar. Ya'ni, narsalar inson uchun qanday ma'no kasb etsa, unga shunday munosabatda bo'ladi [1]. 2. Mazmun va ramzlar ijtimoiy interaksiyadan kelib chiqadi. Odamlar o'zaro muloqot jarayonida ramz va ma'nolarni shakllantiradilar [2]. 3. Mazmun va ramzlar doimo qayta talqin qilinadi. Ya'ni, insonlar har doim o'z tajribasiga asoslanib ramzlarni qayta sharhlab oladilar [1]. Blumer uchun asosiy tushunchalar: Self (O'zlik): Inson o'zini boshqalarning ko'zidan ko'rib idrok etadi [2]. Interaction (O'zaro ta'sir): Jamiyat a'zolari ramzlar orqali bir-birlari bilan o'zaro muloqot qiladi [1]. Meaning (Ma'no): Barcha inson harakatlari u yoki bu ramzlarning talqiniga asoslanadi [2]. Blumer shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarda "interpretativ metod"ning ahamiyatini ta'kidlagan: ya'ni, shaxslarning o'z tajribasini qanday talqin qilishini tushunishga urg'u bergan [1][3]. Ramziy interaksionizm uch asosiy g'oyaga asoslanadi: birinchidan, insonlar o'z muhitlaridagi elementlarga o'zlari bergan baho asosida qaraydilar, ikkinchidan, bunday ma'no (ko'rinish va ramzning o'zaro bog'lanish usuli) kundalik ijtimoiy shaxslararo hamkorlikning mahsuli - interaksiya - sifatida namoyon bo'ladi, va, nihoyat, uchinchidan, bunday sotsiomadaniy ma'nolar o'zaro hamkorlik oqibatida individual tasavurning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. «Men» va «boshqalar» yaxlit hisoblanadi, chunki ishtirokchilarning xulq-atvori yig'indisini ifoda etadigan jamiyat individning xulq-atvoriga ijtimoiy cheklovlar qo'yadi. Biroq nazariy jihatdan, Мед va

jamiyat o'rtasida chegara o'tkazish mumkin bo'lsa ham, interaksionizm birinchisini to'liq anglash ikkinchisini xuddi shunday to'liq anglash bilan uzviy bog'liqdir, degan g'oyaga asoslanadi. Ramziy interaksionizm muhim va qiziqarli g'oyalarning keng doirasini taklif etadi. Bir qator yirik mutafakkirlar, shu jumladan, Joij Gerbert Mid, Charlz Xorton Kuli, U.A. Tomais, Gerbert Blumer va Irvin Goffman kabi olimlarning nomlari bu yo'nalish bilan bog'liq. Gerbert Blumer (1900-1987) ramziy interaksionizmning ikkinchi taniqli vakili, Midning izdoshi. U Sent-Luis shahrida (Missuri shtati) tug'ilgan, Chikago universitetida sotsiologiyadan tahsil olgan. 1925-1952-yillarda Chikago universitetida, 1952-yildan boshlab esa Califomiya universitetida dars bergan. Bu yerda u awaliga professor va kafedra rahbari, 1959-yildan boshlab esa Sotsial fanlar instituti direktori lavozimida ishlagan. 1942-1953-yillarda "American Journal of Sociology" jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Chikago maktabining vakili bo'lgan Blumer Ch. Kuli, J. Dyui, U. Tomasning asarlariga tayangan, J. Midning shogirdi va izdoshiga aylangan. Sotsiologiya fanida "ramziy interaksionizm" atamasining keng joriy etilishi bilan bog'liqdir. U bu atamani 1937-yilda ilk marotaba fanga kiritgan. Ramziy o'zaro aloqani interaktsiya jarayoni sifatida ko'zda kechira turib, Blumer bu tushunchani ayrim shaxs faoliyati; harakatlari) ta'riflash uchun qo'llash imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi. Bunga oddiy empirik kuzatish yordamida erishi mumkin. Bu fikmi Blumer o'zining "Ramziy interaksionizm: istiqbol va uslub" nomli asarining "Jamiyat ramziy interaktsiya sifatida" degan bobida quyidagicha ifodalaydi: "Har birimizga shunday harakatlar yaxshi tanish: inson o'zidan achchiqlanadi, o'zini o'ziga qarshi qo'yadi, o'zi bilan g'ururlanadi, o'zi bilan o'zi bahslashadi, jasurligini saqlab qolishga urinadi, o'ziga o'zi biror ish qilishi zarurligini aytadi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi, o'zi bilan murosa qiladi va buning uchun nima ish qilishi kerakligini rejalashtiradi. Inson o'ziga nisbatan ana shunday yoki yuzaki boshqacha usullar orqali ish tutishi oddiy empirik kuzatuv yordamida tasdiqlanadi"<sup>1</sup>. Blumer tomonidan uning nazariyasining markazi kategoriyalardan biri sifatida taqdim etilgan "jamoaviy harakat konsepsiyasiga ham to'xtalib o'tish zarur hisoblanadi. Uning ushbu mavzudagi asosiy asari ham analogik tarzda "Jamoaviy harakat" (1951) deb nomlanadi. Har qanday guruh faolligini u jamoat harakat, deb tushunadi. "Guruhning faolligi, - deb yozadi Blumer ular o'rtasida mehnat taqsimoti mavjudligini ko'rsatadi va individi xulq-atvoming turli yo'llari ma'lum tarzda o'zaro moslashgani yaqqol ko'rinib turadi. Shu ma'noda guruh faolligi jamoaviy hisoblanadi"[6].

Xulosa

G. Blumer tomonidan ishlab chiqilgan ramziy interaksionizm nazariyasi jamiyatni tushunish uchun yangi yondashuvni taqdim etdi. Ushbu nazariya insonlar o'zaro muloqoti, ramzlar va ularning ma'nosiga asoslangan jamiyatning shakllanishini tahlil qilishda muhim metodologik

asos yaratdi [1]. Bugungi kunda ham bu yondashuv turli sohalarda, jumladan, sotsiologiya, psixologiya va kommunikatsiya tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda [4][5].

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blumer, H. (1969). Symbolic Interactionism: Perspective and Method. University of California Press.
2. Mead, G. H. (1934). Mind, Self, and Society. University of Chicago Press.
3. Ritzer, G. (2011). Sociological Theory (8th Edition). McGraw-Hill.
4. Sandstrom, K. L., Martin, D. D., & Fine, G. A. (2001). Symbols, Selves, and Social Reality: A Symbolic Interactionist Approach to Social Psychology and Sociology. Oxford University Press.
5. Charmaz, K. (2014). Constructing Grounded Theory. Sage Publications.
6. Блумер Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. Тексты. - 1996.- С . 16
7. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
8. Jiyanmuratova G. Sh. Huquq sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 180 b. // [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAA-AJ:QD3KBmkZPeQC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAA-AJ:QD3KBmkZPeQC)
9. Jiyanmuratova G. Sh. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar va maktablar: Darslik. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 340 b. // [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAA-AJ:jL-93Qbq4QoC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAA-AJ:jL-93Qbq4QoC)
10. Bekmurodov, M.B.; Raximova, N.X.; Jiyanmuratova, G.Sh.; Nurqulov, B.G'. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025. – 160 b. // [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAA-AJ:48xauSegjOkC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAA-AJ:48xauSegjOkC)
11. Sh J. G. Gofurov O. Ul. Mehnat bozori. Bandlik va ishsizlik muammolari. Risola.– Toshkent: O 'zMU, 2023.–117 b.
12. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH–USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.

13. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH–DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Джиянмуратова Г. YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
15. Sherbutayevna J. G. et al. ABSENTEIZM IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 2. – С. 4-10.
16. Жиянмуратова Г. Ш. Ёш сайловчи электорал хулқ-атвориға таъсир кўрсатувчи омиллар/ЎзМУ хабарлари.–Тошкент, 2022. – № 1/11/1.–Б. 86-89./<https://scholar.google.com/citations>.
17. Джиянмуратова Г. Ш. ELEKTORAL XULQ-ATVORGА RATSIONAL-INSTRUMENTAL YONDASHUVNING PAYDO BO ‘LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 5. – №. 3. // [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA\\_AJ&cstart=20&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAAAJ:HtEfBTGE9r8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA_AJ&cstart=20&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:HtEfBTGE9r8C)
18. Жиянмуратова Г. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданияти. Монография.– Тошкент, 2021.–122 б.
19. Sh J. G. The Issue Of Youth Trust In Political Institutions In Sociology //Sotsiologiya va huquq/Sociology and law. – 2024. – Т. 2. – №. 3/1. – С. 1.
20. Jiyamuratova G. S. ZAMONAVIY YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA ISHONCHI TADQIQOTLARI: XORIJ TAJRIBASI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – С. 190-197.